

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.09

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MOLIYA ORGANLARIDA NAZORAT
VA IQTISODIY ISHLAR
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X.,
k.o'q. Nurmuxammedova B.

Taqrizchilar: dots. Haydarov N.,
k.o'q. Qosimova G.

Mazkur dastur moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilishning asosiy turlari, shakllari va usullarini o'z ichiga olgan bo'lib, oliy ta'limning "Biznes va boshqaruv" sohasi bo'yicha bakalavriatning "Moliya", "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishlaridagi talabalarga mo'ljallab tuzilgan. Undagi O'zbekiston Respublikasi moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlarni tashkil etish amaliyoti hamda bu sohadagi taraqqiy etgan davlatlar ilg'or tajribalari bilan bog'liq masalalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mohiyatini aks ettiradi. Dasturda fanni o'rganishga oid o'zbek, rus va ingliz tillaridagi asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan. Dasturga kompyuter o'quv dasturlari, internet tarmog'i saytlari ro'yxati ilova qilingan.

Данная программа включает в себя основные виды, формы и способы организации контрольно-экономической работы в финансовых органах и предназначена для студентов направлений бакалавриата "Финансы", "Налоги и налогообложение". В программе освещены вопросы организации контрольно-экономической работы в финансовых органах Узбекистана и передовой опыт развитых стран в этой области, которые отражают основную суть лекционных, практических занятий и тем самообразования. В программе приведены списки литературы для изучения предмета на узбекском, русском и английском языках. К концу списка приложена перечень сайтов интернета и компьютерных учебных программ по соответствующим темам курса.

Program includes the most important theme reflecting the main point of general Tasks of foreing countries Finance and is worked out considering all special ties end directions of baccalaureate in sphere of "Business and Management ". lecture themes, practical studies, seminars and self – educated questions including questions of foreign economic policy and foreign economic affairs of the Republic of Uzbekistan are observed in it.

Program consist of list of main and additional literature, economic news – papers and margarines, including also necessary English literature. As an appendices presented list of computer educational programs, internet web – sites and electronic training aids.

Дастур Тошкент молия институти Илмий Кенгашида муҳокама қилинган ва нашрга тавсия этилган (25 апрель 2002 йил 9-сон мажлис баённома).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi

"Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar" fanini o'qitishning maqsadi – kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo'lib etishadigan talabalar uchun moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy nazorat siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib fan o'z predmetini o'rgatish uchun quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar tizimi va uning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslarini o'rganish;
- moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish turlari, shakllari va usullarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi moliya organlari, ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi funktsiyalari, huquq va majburiyatlarini o'rganish;
- moliya organlarining davlat daromadlari istiqbollari belgilash va iqtisodiy tahlil qilish sohasidagi nazorat-iqtisodiy ishlarini o'rganish;
- noishlab chiqarish tashkilotlari va muassasalari hamda alohida tadbirlarni moliyalashtirishni o'rganish;
- byudjet tashkilotlari harajatlar smetasi va asosiy ishlab-chiqarish (operativ-tarmoq) ko'rsatkichlarining to'g'ri hisoblanganligini tekshirish asoslarini o'rganish;
- byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish etish asoslarini o'rganish;
- moliya organlarida byudjetni tuzish va ijro etish jarayonidagi moliyaviy nazorat asoslarini o'rganish;
- taraqqiy etgan mamlakatlar moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil etish amaliyotini o'rganish.

"Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar" fani "Moliya", "Iqtisodiy tahlil", "Xalqaro moliya munosabatlari", "Chet mamlakatlar moliyasi" kabi fanlardan olingan nazariy asoslarga tayanadi.

Shu bilan birga "Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar" fani "Davlat byudjeti", "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish", "Nobyudjet fondlar", kabi qator maxsus fanlarni o'zlashtirish uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi davlat ta'lim standartiga (DTSga) muvofiq ravishda o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalariga talablar

Ushbu fanni o'rganish jarayonida talabalar tegishli bilimga, uquvga va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Talabalar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda xalqaro moliyaviy qonunchilik, ommaviy-axborot vositalari orqali xalqaro miqyosdagi kundalik moliyaviy o'zgarishlardan xabardor bo'lishlari lozim. Mazkur fanning asosiy g'oyalari mukammal o'rganish uchun talabalar xalqaro moliya amaliyotida mavjud iqtisodiy tahlil usullaridan, moliyaviy rejalashtirish usullaridan foydalana bilishlari lozim.

"Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlar" fanidan olingan bilimlar talabalarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, xalqaro moliya amaliyotiga oid kundalik faoliyatda uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarga doir adabiyotlarni o'rganib, malakalarini oshirishlarida qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar minimal miqdoriga talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha talabalar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadi. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha talabalarning to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi (foizlarda) bo'yicha tavsiyalar

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 75, shu jumladan 30 - ma'ruza, 20 - amaliy mashg'ulotlar va 25 - mustaqil ta'lim soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish VIII o'quv semestriga mo'ljallangan.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimini baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishning bir semestrda ikki marotaba joriy (seminar mashg'ulotlarida), ikki marotaba oraliq (ma'ruza mashg'ulotlarida) va bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Ushbu fanni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning asoslarini quyidagilar isbotlaydi:

- tegishli o'quv maqsadlarini ishlab chiqish texnologiyasining mavjudligi;
- to'la o'zlashtirish texnologiyasi ko'zda tutilganligi;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga o'tkazish texnologiyasi mavjudligi;
- test topshiriqlarining invariantligi metodologiyasi va nazariyasidan foydalanilishi;
- muammoli usul va haqiqatni imitatsion modellashtirish asoslaridan foydalanilishi;
- tayanch iboralarga asoslangan "yozma ish" orqali nazorat ishlarini o'tkazish tizimidan foydalanilishi.

Bu fanni o'qitishda moliyaga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi ("Moliya" AIJ) dasturi, nizomlar va moliyaviy loyihalarni baholashning YuNIDO va "Projestexpert" kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatuvchi materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ishchi dasturni tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan "Moliya", "Soliq va soliqqa tortish" bakalavr ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislariga tegishli tarzda VIII semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan.

Ushbu fan bo'yicha ishchi dasturlari tuzishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. Fan bo'yicha bakalavriat bosqichining tegishli yo'nalishlari uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq ajratilgan soatlar xisobga olinishi zarur;
2. Har bir mavzuga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar xamda tegishli moliyaviy qonunchilik asosidagi yangi talab va o'zgarishlar talabalar e'tiborini etadigan tarzda berilishi kerak;
3. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular va savollar ajratilib ko'rsatilishi zarur;

4. Ishchi dasturda o'qitishning ilg'or texnologiyalari, dasturiy ta'minot imkoniyatlari hamda talabalar bilimi darajasini nazorat qilishning reyting tizimi talablaridan kelib chiquvchi vazifalar ham yoritilishi lozim.

2. FAN DASTURI

"Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" fani bo'yicha o'qiladigan ma'ruzalar mavzulari

"Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" fanining predmeti, maqsad va vazifalari

"Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" fanining predmeti, o'rganish ob'ektlari. Jamiyatda xo'jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida pul oqimlari, moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish – kursning o'rganish ob'ekti sifatida. "Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" fanining maqsadi, vazifalari, iqtisodiy bilimlar qatorida tutgan o'rni va ahamiyati, uning boshqa maxsus fanlar bilan o'zaro aloqasi. Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlarni tashkil etishning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslari. *Moliyaviy nazorat – boshqarish tizimining asosiy elementi sifatida.* Nazorat-iqtisodiy ishlarning tashkil topish va rivojlanish bosqichlari. *Moliyaviy nazoratning nazariy asoslarining hozirgi zamon nazariyotchi – olimlari tomonidan talqin etilishi.* Nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish tamoyillari. Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarning vazifalari, ularni tashkil etish usullari, islohotlarning yangi bosqichida ularning takomillashuvi. Nazorat-iqtisodiy ishlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xo'jalik yuritishning yuqori natijalariga erishishga, davlat daromadlarining oshishiga hamda davlat mablag'laridan samarali, foydalanishga ta'siri. *Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil etishning huquqiy asoslari, ularning mustahkamlanishi va takomillashuvi.*

Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlarni tashkil qilish turlari, shakllari va usullari

Moliya organlari to'g'risida tushuncha. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy nazoratning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaviy nazoratning uni amalga oshiruvchi sub'ektlarga ko'ra turlari. Davlat moliya nazorati, uning guruhlanishi. Umumdavlat moliya nazorati, asosiy organlari, ularning vazifalari. Mahkamaviy (idoraviy) moliyaviy nazorat, uning o'ziga xos xususiyatlari, sub'ektlari. *Nodavlat moliya nazorati: sub'ektlari, vazifalari va ahamiyati.* Moliya organlarida moliyaviy nazoratni olib borish shakllari: dastlabki, joriy va so'nggi nazorat, ularning xususiyatlari, bir-biriga bog'liqligi hamda muvofiqligi zaruriyati. Nazoratni olib borish usullari: tekshirish; tahlil qilish, taftish qilish. Nodavlat, dahlsiz moliyaviy nazoratning tarkib topishi va rivojlanishi, uning ahamiyati. Auditorlik nazoratining mohiyati, zaruriyati, afzalliklari. Islohotlarning bugungi bosqichida moliyaviy nazorat organlari faoliyatini

muvofiglashtirish. *O'zbekiston Respublikasida "Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiglashtiruvchi Respublika Kengashi"ning tuzilishi, uning maqsad va vazifalari. (PF-1503 08.08.1996 y.)*

O'zbekiston Respublikasi moliya organlari, ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi funksiyalari, huquq va majburiyatlari

Umumdavlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar, ularning tarkib topishi va rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari. Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibi va tuzilishi, uning moliya tizimida nazoratni tashkil qilishdagi roli va ahamiyati. Moliya vazirligi tizimi, uning tarkibiy tuzilishi. Mahalliy moliya organlari, hududiy moliyani boshqarish, tartibga solish va nazorat qilishda ularning ahamiyati, ulardagi nazorat ishlarining xususiyatlari. Moliya vazirligi tizimi faoliyatini tartibga solish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi qonuniy-huquqiy hujjatlar. Moliya vazirligi tarkibidagi nazorat – taftish Boshqarmasi, uning tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari. Davlat mablag'laridan, davlat mulkidan va davlatga tegishli boshqa aktivlardan maqsadga muvofiq foydalanishni nazorat qilishda *nazorat-taftish Boshqarmasi (NTB)ning ahamiyati. NTBning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy va qonuniy hujjatlar.* O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi, uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari. Soliq nazoratini yuritishda, davlat daromadlarining o'z vaqtida, to'liq tushishini ta'minlashda DSQ sining ahamiyati. DSQ tizimi, uning tarkibiy tuzilmalarida nazorat-iqtisodiy ishlarining xususiyatlari. *Iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida moliya-soliq organlariga qo'yilayotgan yangi talablar, ular faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.*

Moliya organlarining davlat daromadlari istiqbollarini belgilash va iqtisodiy tahlil qilish sohasidagi nazorat-iqtisodiy ishlari

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qilish – davlat daromadlari (jumladan, davlat byudjet daromadlari)ning istiqbolini belgilashning asosi sifatida. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularning tahlili, davlat daromadlari hajmlari bilan bog'liqligi. Davlat byudjetiga soliqlar va tushumlarning tushushini tahlil qilish – daromadlar istiqbolini belgilashning zaruriy elementi. *Davlat byudjetiga soliqlar va tushumlarning tushushini tahlil qilishda soliq va moliya organlari faoliyatini muvofiglashtirish. Davlat soliq-byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish-daromadlarni prognozlashning asosiy bosqichi.* Moliya organlarining daromadlar istiqbollarini belgilash sohasidagi nazorat-iqtisodiy ishlarini muvofiglashtirish masalalari.

Noishlab chiqarish tashkilotlari va muassasalari hamda alohida tadbirlarni moliyalashtirish

Iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi hamda nobozor sektorining mavjudligi, zarurligi va ahamiyati. *Noishlab chiqarish sohasi va nobozor sektori tashkilotlari va muassasalari moliyaviy ta'minlanishining xususiyatlari*. Byudjet tashkilotlari to'g'risida tushuncha. Byudjet mablag'lariga egalik qiluvchilar, ularning guruhlanishi. *Byudjet tashkilotlarini smetali moliyalashtirish tartibi*. Shtatlar jadvali, uning tuzilishi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. Moliya organlarining byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, smeta asosida moliyalashtirish va mablag'lardan foydalanish jarayonidagi nazorat iqtisodiy ishlar: smetaning va shtatlar jadvalining to'g'riligini tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirishni ochish, mablag'larning ishlatilishini nazorat qilish, hisobotlar qabul qilish va umumlashtirish. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalarining shakllanishi, mablag'larning ishlatilishi yuzasidan nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish.

Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va asosiy ishlab-chiqarish (operativ-tarmoq) ko'rsatkichlarining to'g'ri hisoblanganligini tekshirish

Byudjet tashkilotlarining asosiy ishlab chiqarish (operativ-tarmoq) ko'rsatkichlari – tekshirish ob'ekti sifatida. Ijtimoiy sohaning turli tarmoqlari va iqtisodiyotning nobozor sektori muassasalari asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash va rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. *Xarajat guruhlari bo'yicha asosiy hisob-kitoblar, ularning to'g'riligini tekshirish tartibi, tekshirish manbalari*. Xarajatlarni rejalashtirishning qonuniy, huquqiy-me'yoriy asoslari. Byudjet me'yorlari, xarajatlarni limitlash, ularga rioya qilinganlikni tekshirish.

Byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish etish

Taftish – moliya organlari nazorat-iqtisodiy ishlarining asosiy usuli sifatida. Byudjet tashkilotlarida taftish o'tkazish huquqiga ega bo'lgan organlar, ularning vakolatlari. *Mahkamaviy (idoraviy) nazorat apparati, uning vazifalari, vakolatlari*. Moliya vazirligi tizimidagi moliya organlarining, vakolatlari, nazorat-taftish organlari, ularning huquqlari va vakolatlari. Byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning asosiy vazifalari. Taftish turlari, ularning o'zaro bog'liqligi. Taftish manbalari, ularning guruhlanishi. Taftish bosqichlari, ularga tavsif. Taftishlarni rejalashtirish. Taftish dasturini tuzish. Taftishni tashkil qilish. Taftish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish. Dalolatnoma – taftishning asosiy rasmiy hujjati sifatida. Taftish

natijalarini amalga tadbiiq etish va nazorat o'rnatiish. *Taftishlarni tashkil qilishda davlat nazorati organlarining auditorlik nazorati idoralari bilan hamkorligi.*

Moliya organlarida byudjetni tuzish va ijro etish jarayonini taftish etishni tashkil etish

Byudjetni tuzish jarayonida moliya organlari faoliyatini taftish etishning asosiy vazifalari. Byudjetni tuzish bo'yicha taftishning sub'ektlari, ob'ektlari va predmeti. *Taftish manbalari.* Byudjet ijrosini taftish qilish: byudjetning daromad va xarajatlar bo'yicha ijrosini tekshirish, qo'shimcha ajratmalarning asoslanganligini, rejadan ortiqcha ajratmalarni moliyalashtirish manbalarining mavjudligini tekshirish. Byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha, byudjet ssudalarini berishi bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish. *Moliya organlarida nazorat - iqtisodiy ishlarning holatini tekshirish.* Byudjetning kassaviy ijrosini tekshirish va taftish qilish, uning maqsadi, vazifasi, ob'ektlari. Taftish natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlar belgilash. Islohotlarning hozirgi bosqichida tekshirish va taftishlarning samaradorligini oshirish, taftishchilarni moddiy rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish.

Taraqqiy etgan mamlakatlar moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarini tashkil etish amaliyoti

Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish. Moliyaviy nazorat organlarining xususiyatlari. Soliq, byudjet va moliya nazoratining o'ziga xos jihatlari. Nazorat-iqtisodiy ishlarni mikrodarajada tashkil etish amaliyoti. Iqtisodiy nazoratni makrodarajada tashkil etish amaliyoti, bu sohadagi horijiy tajriba asosida O'zbekiston moliya organlari oldiga qo'yilayotgan yangi talablar. *O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.*

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI, LABORATORIYA ISHLARI, CHIZMA-HISOB ISHLARI, KURS ISH(LOYIHA)LARI MAVZULARINING NAMUNAVIY RO'YXATI

Amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari ro'yxati

"Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" fanining predmeti, maqsad va vazifalari

"Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" kursining predmeti, o'rganish ob'ektlari.* Jamiyatda xo'jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida pul oqimlari, moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish – kursning o'rganish ob'ekti sifatida.* "Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlar" kursining maqsadi va vazifalari.* Moliya organlarida nazorat va iqtisodiy ishlarni tashkil etishning nazariy, uslubiy va huquqiy asoslari. Nazorat-iqtisodiy ishlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xo'jalik yuritishning yuqori natijalariga erishishga,

davlat daromadlarining oshishiga hamda davlat mablag'laridan samarali foydalanishga ta'siri.

Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish turlari, shakllari va usullari

Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati, ob'ektlari va sub'ektlari turlari. Davlat moliya nazorati, uning guruhlanishi. Nodavlat moliya nazorati: sub'ektlari, vazifalari va ahamiyati. Moliya organlarida moliyaviy nazoratni olib borish shakllari: dastlabki, joriy va so'nggi nazorat, ularning xususiyatlari, bir-biriga bog'liqligi hamda muvofiqligining zarurligi.* Nazoratni olib borish usullari: tekshirish: tahlil qilish, taftish qilish.* Auditorlik nazoratining mohiyati, zarurligi, afzalliklari.* O'zbekiston Respublikasida "Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashi"ning tuzilishi, maqsad va vazifalari. (PF-1503 08.08.1996 y.)

O'zbekiston Respublikasi moliya organlari, ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi funktsiyalari, huquq va majburiyatlari

Umumdavlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar, ularning tarkib topishi va rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi uning vazifalari, funktsiyalari, huquq va majburiyatlari.* Mahalliy moliya organlari, hududiy moliyani boshqarish, tartibga solish va nazorat qilishda ularning ahamiyati, ulardagi nazorat ishlarining xususiyatlari. Moliya vazirligi tarkibidagi Nazorat – taftish Boshqarmasi (NTB), oning tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari.* O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasi, uning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari. DSQ tizimining, tarkibiy tuzilmalarida nazorat-iqtisodiy ishlarning xususiyatlari.*

Moliya organlarining davlat daromadlari istiqbollarini belgilash va iqtisodiy tahlil qilish sohasidagi nazorat-iqtisodiy ishlari

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qilish – davlat daromadlari (jumladan, davlat byudjet daromadlari)ning istiqbolini belgilashning asosi sifatida. Davlat byudjetiga soliqlar va tushumlarning tushishini tahlil qilish – daromadlar istiqbolini belgilashning zaruriy elementi.* Davlat byudjetiga soliqlar va tushumlarning tushishini tahlil qilishga noliq va moliya organlari faoliyatini muvofiqlashtirish.*

Noishlab chiqarish tashkilotlari va muassasalari hamda alohida tadbirlarni moliyalashtirish

Iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasi hamda nobozor sektorining mavjudligi, zarurligi va ahamiyati. Byudjet tashkilotlari to'g'risida tushuncha. Byudjet tashkilotlarini smetali moliyalashtirish tartibi. Moliya organlarining byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, smeta asosida moliyalashtirish va mablag'lardan foydalanish

jarayonidagi nazorat-iqtisodiy ishlar: smetaning va shtatlar jadvalining to'g'riligini tekshirish, tasdiqlash, moliyalashtiruvchi organ tomonidan ro'yxatdan o'tkazish, moliyalashtirishni ochish, mablag'larning ishlatilishini nazorat qilish, hisobotlar qabul qilish va umumlashtirish.* Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalarining shakllanishi, mablag'larning ishlatilishi yuzasidan nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish.*

Byudjet tashkilotlari harajatlar smetasi va asosiy ishlab-chiqarish (operativ-tarmoq) ko'rsatkichlarining to'g'ri hisoblanganligini tekshirish.

Byudjet tashkilotlarining asosiy ishlab chiqarish (operativ-tarmoq) ko'rsatkichlari – tekshirish ob'ekti sifatida.* Harajat guruhlari bo'yicha asosiy hisob-kitoblar, ularning to'g'riligini tekshirish tartibi, tekshirish manbalari. Xarajatlarni rejalashtirishning qonuniy, huquqiy - me'yoriy asoslari.

Byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish etish

Taftish - moliya organlari nazorat-iqtisodiy ishlarining asosiy usuli sifatida. Byudjet tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilishning asosiy vazifalari.* Taftish turlari, ularning o'zaro bog'liqligi, taftish manbalari, ularning guruhlanishi.* Taftish natijalarini amalga tadbiiq etish va nazorat o'rnatish.

Moliya organlarida byudjetni tuzish va ijro etish jarayonini taftish etishni tashkil etish

Byudjetni tuzish jarayonida moliya organlari faoliyatini taftish etishning asosiy vazifalari.* Byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha, byudjet ssudalarini berishi bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligini tekshirish.* Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarning holatini tekshirish.* Byudjetning kassaviy ijrosini tekshirish va taftish qilish, uning maqsadi, vazifasi, ob'ektlari.

Taraqqiy etgan mamlakatlar moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarini tashkil etish amaliyoti.

Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish, moliyaviy nazorat organlarining xususiyatlari.* Nazorat-iqtisodiy ishlarni mikro va makro darajada tashkil etish amaliyoti. Iqtisodiy nazoratni makrodarajada tashkil etish amaliyoti, bu sohadagi horijiy tajriba asosida O'zbekiston moliya organlari oldiga qo'yilayotgan yangi talablar.* O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI RO'YXATI

Mavzularni chuqur o'rganishda ko'rgazmali vositalar, slaydlardan, kompyuter texnikasidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Case Studies: O'R makroiqtisodiy tahliliga doir o'quv misollari (rus tilida). Ochiq jamiyat instituti xomiyligida Iqtisodiy Markaz tomonidan tuzilgan.

Masofaviy o'qitish soatlari: www.google.ru (Budapesht, Evropa Markaziy Universiteti dasturlari) www.yandex.ru; www.rambler.ru; www.worldbank.org.ru; www.imf.org.

Kompakt disk: Sales information. International Monetary Fund – Publication Services; Exchange Rate Analysis with a Case Study on Poland.

Statistik to'plamlar:

1. Strani mira v tsifrax za 2000, 2001 g.g.
2. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2000, 2001, 2002 g.g.
3. Otcheti MVF za 2000, 2001 g.g.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq va yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70%, yakuniy baholashga esa 30% miqdorda belgilanadi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- talabani o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- ilmiy tezislar tayyorlashi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida yozma ishni tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100 foiz "a'lo";
- 71 - 85 foiz "yaxshi";
- 55 - 70 foiz "qoniqarli";

- 55 foizdan kam "qoniqarsiz".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istihlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2003 yillari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining parametrlari to'g'risi"dagi 455-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2002.
7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999 yil 13 dekabrda "Moliya vazirligi va moliya organlarining byudjet tashkilotlari va shtatlar jadvalini registratsiya qilish tartibi" haqidagi 849-sonli buyrug'i.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999 yil 13 dekabrda "Ijtimoiy soha tashkilotlarini 2000 yil byudjetdan moliyalashtirishning me'yorlari" haqida 850-sonli buyrug'i.
9. O'zbekiston Respublika Moliya vazirligining 1999 yil 9 dekabrda "Davlat byudjeti xarajatlari va 2000 yil byudjet blankasining asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 230-sonli buyrug'i.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1999 yil 23 dekabrda 859-son "Byudjet tashkilotlarining daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Nizomi.
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 236-sonli, halq ta'limi vazirligining 210-sonli, Sog'liqni saqlash vazirligining 737-soni 1999 yil 17 dekabrda "Huquqiy shaxs maqomi beriladigan byudjet tashkilotlari to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i.
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2000 yil 7 yanvarda "Vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini tashkilotlarga ijaraga berish to'g'risida"gi Nizom.
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2000 yil 3 fevralda "Respublika va mahalliy byudjetlarga qarashli byudjet tashkilotlarining smeta xarajatlarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash to'g'risida"gi 888-sonli me'yoriy hujjati.

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2001 yil 12 apreldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarning ko'zda tutilgan daromadlari va xarajatlari yillik rejasining choraklararo taqsimlanishining tartibi, byudjetni bajarish jarayonidagi o'zgartirishlar kiritish hisobi, byudjetda ko'zda tutilgan tashkilot va tadbirlarni moliyalashtirish to'g'risida"gi 1025-sonli buyrug'i.
15. Akramov E. A., Tairov A. E. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy islohotlari - M.: TOO Lyuks-art, 1998.
16. Abramova A. M., Aleksandrova L. S. Finansi, denejnoe obrashchenie i kredit: Ucheb. pos. -M.: 1999.
17. Drobozina L. A. Obshchaya teoriya finansov. -M.: Banki i birji, 1999.
18. Zaripova I. R., Xafizova V. R. Istoriya razvitiya i sovremennoe sostoyanie mejbyudjetnix otnosheniy v Rossii. 2-izd. –Ufa: GP Print, 2001.
19. Zaripova I. R., Xafizova V. R. Balans finansovix resursov territorii. 2-izd. – Ufa: GP "Print", 2001.
20. Ivanova M. V. Finansi i razvitie malix gorodov Kolskogo Severa. 2-izd. –Apatiti: IEP KNTs RAN, 2001.
21. Kovaleva A. M. Finansi. Uchebnoe posobie dlya studentov ekonomicheskix napravleniy i spetsialnostey VUZov, 3-izd. - M.: Finansi i statistika 2001.
22. Teylor A. X., Poukoea M. A., Finansovoe planirovanie i kontrol. 2-izd. -M.: INFRA-M, 1999.
23. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. M. V. Romanovskogo, O. V. Vrublevskoy, B. M. Sabanti. -M.: Yurayt, 2000.
24. Ernst Djons. Delovie finansi. -M.: Dialog, 1998.
25. Chetirkin E. M. Finansoviy analiz proizvodstvennix investitsiy. 2 – e izd. ispr. i pererab. –M.: Delo, 2001.
26. Yurtseva T. V. Ekonomika nekommercheskix organizatsiy. -M.: Yurist, 2002.
27. V. Ponamarenko Finansi obshchestvennogo sektora Rossii. -M.: Ekonomika, 2001.
28. Xolt R. Kontrolling dlya vsekh. -M.: Audit-Inform. 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Vajneyshie zadachi organov finansovoy sistemi. Finansi pri perexode k rinku // "Finansi", 1997, № 6.
2. Gerasimenko G. P., Markaryan E. A., "Finansoviy analiz", Uch.pos. 2-ezd. -M.: PRIOR, 2001.
3. Dj. K. Van Xorn Osnovi upravleniya finansami. Pod red. prof. Sokolova Ya. V. 2-ezd. -M.: Finansi i statistika, 2000.

4. Kovalev V. V. Finansoviy analiz: upravlenie kapitalom, vibor investitsiy, analiz otchetnosti. 2-ezd. -M.: Finansi i statistika, 2000 g.
5. Kutafin O. E., Fadeev V. I. Munitsipalnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. -M.: Yurist, 1997.
6. Lavrov A. Problema stanovleniya i razvitiya byudjetnogo federalizma v Rossii. Stanovlenie rinochnoy ekonomiki v Rossii: Sb. nauch. proektov. Vip. 10. -M.: MGU, 2000.
7. Larionov I. K. O nekotorykh voprosakh sotsialno-ekonomicheskoy strategii i finansovoy politiki. // "Finansi", 1997, № 6.
8. Lobodenko N. V. Audit i diagnostika bankrotstva. // "Finansi", 1997. № 2.
9. Erik Xelfert Texnika finansovogo analiza. Per. s angl. Pod red. Belix L. P. 2-ezd. -M.: Audit, YuNITI, 2000.
10. Boyd J. Inflation. "Growth and Control Banks Theory and Evidence", 1996. Policy Research Working Paper 1575. The World Bank. Washington. D. C.
11. EBKD transition Report 1998. Financial sector in transition. European Bank for Reconstruction and Development. London 1998.
12. Hermes N. Lesnik R. Financial System Development in Transition Economies. Journal of Banking and Finance. Vol. 24. pp. 507-524.
13. Moyer C. Financial System. Corporate Finance and Economic Development, in RA Hubbard (ed) Asymmetric information. Corporate Finance and investment. A National Bureau of Economic Research Project Report, University of Chicago Press. Chicago. PP. 307-322.
14. Steinherr A. An innovative Package for Financial Sector Reforms in Eastern European Countries. Journal of Banking and Finance 17 PP. 1033-1057.
15. Mingaleva Zh About the experience of enterprise's strategies in crisis situation. All Russian scientific conference "Economics" theory methodology, trends of development: S-Petersburg 1998.

Tkacheva S Innovation Activities Infrastructure, treated as Multi Agent System The 11th Annual Meeting of the Japan Association for Evolutionary Economics. JAFEE 2000 Tokyo Japan 2000. 136-141.